



LEKSEMALARNING GENDER XUSUSIYATLARIGA ASOSLANGAN ASSOTSIATSIYASINI TILAK VA TABRIK NUTQIY AKTIDA IFODALANISHI

Muratova N.B.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Tayanch soz'lar: gender, assotsiatsiya, assotsiativ tilshunoslik, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, psixologik assotsiatsiya, emotsional leksemalar, leksema, lisoniy birliklar, tilak va tabrik nutqiy akti, ekstralingvistik va paralingvistik vositalar, ko'chma ma'noli so'zlar, nutqiy muloqot, verbal va noverbal vositalar.

Ключевые слова: гендер, ассоциация, ассоциативная лингвистика, вербальная ассоциация, ассоциативная установка, психологическая ассоциация, эмоциональные лексеммы, лексеммы, языковые единицы, речевой акт пожелания и приветствия, экстралингвистические и паралингвистические средства, слова с переносным значением, речевое общение, вербальные и невербальные. -вербальные средства.

Key words: gender, association, associative linguistics, verbal association, associative attitude, psychological association, emotional lexemes, lexeme, linguistic units, speech act of wish and greeting, extralinguistic and paralinguistic means, words with figurative meaning, speech communication, verbal and non-verbal means.

Verbal assotsiatsiya, uning mohiyati, tahlilida ularning tasnifi muammosi muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, verbal assotsiatsiyalarning ko'lami til egalarida farqlanadi. Verbal assotsiatsiyalarning ko'lami til egasining leksik birliklar zahirasiga bog'liq. Bolalar va kattalar, ayollar va erkaklar, turli kasb egalarida verbal assotsiativ maydon ko'lami, uning tarkibi turlicha bo'ladi. N.O.Zolotovning ma'lumotiga qaraganda, assotsiativ maydon yadrosiga mansub yuqori chastotali birliklar 6 - yoshli bola lug'at boyligidan o'rin olib ulgurgan bo'ladi. Bunday birliklar kundalik nutqiy faoliyatda qo'llanuvchi inson va uning tana a'zolari nomlari, qarindoshlik munosabatlarini ifoda etuvchi nomlar, koinot jismlari, tabiat hodisalarini anglatuvchi nomlar, ayrim rang bildiruvchi so'zlar, harakat va holatni anglatuvchi so'zlar va boshqalardir. Albatta, bu xulosa bolalar va kattalarda verbal assotsiatsiyalarning ko'lami bir



xil bo'lishini anglatmaydi. Yadro a'zolari eng ko'p qo'llaniladigan birliklardan tashkil topgani bois bolalar va kattalarda o'xshash bo'lishi tayin, ammo assotsiativ maydon ko'lami til egalarining leksik zahirasiga bog'liq bo'ladi.

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslikda verbal assotsiatsiyalarning turli tiplari farqlansa-da, hanuzgacha assotsiatsiyalarni aniqlash va tasniflashning yagona tamoyili ishlab chiqilmagan. Assotsiatsiyalar tasnifi masalasiga munosabat bildirgan ukrain olimasi Ye.I.Goroshkoning fikricha, tilshunoslikda "assotsiativ materiallarning sifat jihatdan tahlili hanuzgacha to'liq yechim topgan emas, assotsiatsiyalarning bir-biriga zid kelmaydigan tamoyilga asoslangan qandaydir har jihatdan mukammal tasnifini tuzish mumkin emas va tuzish kerak ham emas... Assotsiatsiyalar tasnifi muammosi ayrim asoslarga ko'ra bir-biriga zid kelmaydigan assotsiativ aloqalar mohiyatini aniqlash muammosi bilan bevosita bog'liq. Erkin assotsiativ tajriba o'tkazish jarayonida aktuallashtirilgan assotsiatsiyalarni qat'iy tarzda lingvistik, mantiqiy, psixolingvistik yoki falsafiy kategoriyalar orqali tavsiflash mumkin emas".

D. Lufullayeva Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi monografiyasida verbal assotsiatsiyalarni hosil bo'lishi nuqtai nazaridan tasniflab o'rganilgan va quyidagi umumlashtirilgan tasniflarni keltirgan.

Verbal assotsiatsiyalar, xususan, leksik assotsiatsiyalarni hosil bo'lishi nuqtai nazaridan lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda o'rganish mumkin. O'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari asosida o'zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning quyidagi lingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'lishi aniqlandi:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi.

Bu tasnif yuqorida keldirilgan olimlar fikrlarining umumiy jamlanmasi bo'lib, biz ham shu tasnifni asosli deb o'ylaymiz.

Quyida Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyani tilak va tabrik nutqiy aktida ko'rib chiqamiz. Tildagi gender markerli leksik birliklar aynan shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ

bog'lanishlarni hosil qiladi. Masalan, ayol leksemasi xotin leksemasi bilan yoki erkak leksemasi bir vaqtda er leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat leksik birliklarning semantik belgisi bilan birga gender xususiyati asosida ham inson tafakkurida guruhlarga birlashuvini ko'rsatadi.

Shunisi xarakterliki, gender belgisiga ko'ra o'zaro zidlanuvchi leksik birliklar ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, yigit leksemasi qiz leksemasi bilan, chol leksemasi kampir leksemasi bilan gender belgisiga ko'ra zidlanadi. Bu zidlik ayni leksik birliklarning bir-birini xotirada tiklashiga yo'l ochadi. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi «Eru xotin – qo'sh ho'kiz», «Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham xotin» maqollarini er, xotin leksemalarining assotsiatsiyasi sifatida baholash mumkin.

Emotsional (tilak va tabrik) leksemalar ham gendir belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi.

Emotsional (tilak va tabrik) leksemalar ham gendir belgisiga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalashuvi	
Ayollar nutqida	Erkaklar nutqida
Kiyib – kiyib to'zdiring. O'zingizga buyursin.	Sarpolar qutlug bo'lsin.
Bir etak bolali bo'ling.	O'g'il – qizingiz ko'p bo'lsin.
Visol oqshomi munosabati bilan bugungi kechamiz qahramonlarini chin dildan tabriklaymiz.	Ikki yoshga baxt tilaymiz. To'ylar muborak
Ko'rgan – kechirganingiz shu bo'lsin.	Sabr tilaymiz.
Keyingi yil beshik to'ylarga kelaylik	O'g'il to'ylarini ko'raylik.
Yuzing yorug' bo'lsin.	Qo'ling baland bo'lsin.

Yuqoridagi tasnif natijasidan ko'rinib turibdiki, tilak va tabrik so'zlarning verbal assotsiatsiyalashuvi jarayoni turli vaziyat, ijtimoiylik, so'zning semantik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik, milliy – madaniy hayot, til uslublari, gendirga asoslangan holda verbal assotsiatsiyalanadi. Verbal assotsiativ tilshunoslikning tadqiq ob'yekti assotsiativ tafakkur hosilalari bo'lmish assotsiatsiyalardir.

Adabiyotlar:

1. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. -153 б.
2. Искандарова Ш., Ҳошимова Н. Нутқ жараёнида ассоциацияларнинг воқеланиши // АнДУ. Илмий хабарлар. -Андижон, 2010. - № 2. - Б. 85-88 б.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. “Меринос” Тошкент – 2017.



4. Muslimjon Nasirov, Malikaxon Meliqo'ziyeva. Badiiy matnning assotsiativ tahlili. Innovation in the modern education system issue vol. 2 no. 19 (2022):

5. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Академнашр, 2012. – 376 б.

6. Ortiqova H. Maydon turlari va assotsiativ maydon xususida. Til va adabiyot ta'limi. 2022- yil 5-son, 24-25 b.

7. Tojiboyev B. O'zbek tili assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar) materiallarining lingvistik tahlili. Til va adabiyot ta'limi. 2022-yil 8- son, 23-25 b.

8. Холбекова Матлубахон. Ассоциация ва ассоциатив тажрибалар моҳияти. Fars int j edu soc sci hum Publishing centre of Finland 1(1); 2022; 176.

9. Yusufjonova D. Verbal va psixologik assotsiatsiyalarning qiyosiy tahlili “pedagogs” International research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 Volume-.

РЕЗЮМЕ

Assotsiativ tilshunoslikda tadqiqotlar olib borgan tilshunoslarning fikrlariga tayangan holda, assotsiatsiyalarni tasnifini tahlil qildik. Biz bu tasnif asosida tilak va tabrik nutqiy aktining verbal assotsiatsiyalashuni o'rgandik va quyida leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyani tilak va tabrik nutqiy aktida ko'rib chiqamiz.

РЕЗЮМЕ

Опираясь на мнения лингвистов, проводивших исследования в области ассоциативной лингвистики, мы проанализировали классификацию ассоциаций. На основе этой классификации мы изучили вербальные ассоциации речевого акта пожелания и поздравления и ниже рассматриваем ассоциации, основанные на гендерных характеристиках лексем в речевом акте пожелания и поздравления.

SUMMARY

Based on the opinions of linguists who conducted research in associative linguistics, we analyzed the classification of associations. Based on this classification, we studied the verbal association of the speech act of wish and congratulation, and below we consider the association based on the gender characteristics of lexemes in the speech act of wish and congratulation.